

Uzbekistan Airways tarif siyosati yangilanmoqda

2026 17 Mart

Yo'lovchilar uchun tanlash imkoniyatlarini kengaytirish va aviatashuv shartlarining moslashuvchanligini oshirish maqsadida aviakompaniya aviachiptalar narxining bir necha darajasini nazarda tutuvchi brend tariflarini joriy etmoqda. Brend tariflari tashish shartlari va kiritilgan xizmatlar to'plami (bagaj me'yori, chiptalarni almashtirish va qaytarish shartlari, jo'nab ketish sanasini o'zgartirish imkoniyati va boshqa xizmat ko'rsatish imkoniyatlari) bilan farq qiladi, bu esa yo'lovchilarga eng mos parvoz variantini tanlash imkonini beradi.

Mahalliy aviaqatnovlar

2026-yil 1-apreldan boshlab O'zbekiston Respublikasining ichki aviaqatnovlarida brend tariflari joriy etiladi, bunda Lite brendi bo'yicha tariflarning minimal darajalari:

- Toshkent – Andijon – 235 230 UZS dan boshlab
- Toshkent – Samarqand – 235 230 UZS dan boshlab
- Toshkent – Namangan – 235 230 UZS dan boshlab
- Toshkent – Farg'ona – 235 230 UZS dan boshlab
- Toshkent – Buxoro – 276 741 UZS dan boshlab
- Toshkent – Termiz – 401 275 UZS dan boshlab
- Toshkent – Urganch – 484 298 UZS dan boshlab
- Toshkent – Nukus – 484 298 UZS dan boshlanadi

Narx 2026-yil 17-mart holatiga ko'ra valyuta o'tkazmalari kursi bo'yicha ko'rsatilgan. Ko'rsatib o'tilgan tariflar aviatashuvlar narxining minimal darajalari hisoblanadi va chipta sotib olingan sana, joylarning mavjudligi va qo'llaniladigan tarif shartlariga qarab o'zgarishi mumkin.

Xalqaro aviaqatnovlar

Xalqaro yo'nalishlarda, shuningdek, kiritilgan xizmatlar to'plami va tariflarni qo'llash shartlari bilan farq qiluvchi iqtisodiy va biznes-klasslarda aviatashuvlar narxining bir necha darajasini nazarda tutuvchi brend tariflari tizimi joriy etilmoqda.

Qo'shimcha ma'lumot

Qaytarilmaydigan tariflarga ega chiptalar bo'yicha parvozdan foydalanilmagan taqdirda, yo'lovchilarga foydalanilmagan yo'nalish uchastkasi uchun yoqilg'i va bronlash yig'imlaridan tashqari, foydalanilmagan uchastkalar uchun barcha taksa (yig'imlar) va yig'imlar qaytariladi.